



On the issue of pronouns and gender in languages of different systems

Nasibakhon PAZILOVA¹

Andijan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2025
Received in revised form
15 March 2025
Accepted 25 April 2025
Available online
15 May 2025

Keywords:

gender,
pronouns,
inclusivity,
stereotypes,
gender identity,
gender neutrality,
neopronouns,
language policy,
social equality.

ABSTRACT

The article analyzes the relationship between pronouns and the concept of gender. It discusses the binary understanding of gender (male/female), the formation of neopronoun (new pronouns) in different languages, their influence on social norms, stereotypes, language, especially pronouns, serving as an important means of expressing and consolidating gender. The article examines the use of pronouns in different language systems using examples.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss3-pp118-121>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Turli tizimli tillarda olmoshlar va gender masalasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

gender,
olmosh,
ijtimoiy me'yor,
inklyuzivlik,
stereotip,
gender neytralligi,
neopronoun
(yangicha olmosh),
til siyosati,
ijtimoiy tenglik.

Maqolada olmoshlar va gender tushunchasining o'zaro aloqasi tahlil qilinadi. Unda genderning ikkilik asosda (erkak/ayol) tushunilishi, turli tillarda neopronoun (yangicha olmosh) shakllanishi, buning ijtimoiy me'yorlar, stereotiplarga ta'siri, tilning, ayniqsa olmoshlarning, genderni ifodalash va mustahkamlashda muhim vosita sifatida xizmat qilishi haqida bahs yuritiladi. Maqolada turli tizimli tillarda olmoshlarning qo'llanishi misollar orqali ko'rib chiqiladi.

¹ Candidate of Philological Sciences, Professor, Andijan State Institute of Foreign Languages.
E-mail: nasibapazilova@gmail.com

Проблема местоимений и гендера в разносистемных языках

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

гендер,
местоимения,
социальная норма,
инклюзивность,
стереотип,
гендерная нейтральность,
неоронун,
языковая политика,
социальное равенство.

В статье анализируется взаимосвязь между местоимениями и понятием гендера. В ней обсуждается бинарное понимание гендера (мужской/женский), формирование неоронун (новых местоимений) в разных языках, их влияние на социальные нормы, стереотипы, язык, особенно местоимения, служат важным средством выражения и закрепления гендера. В статье на примерах рассматривается употребление местоимений в разносистемных языках.

KIRISH

Ilmiy manbalarda gender ko'pincha ikkilik (binary) tushunchasi sifatida anglashiladi. Bunday yondashuv jamiyatda erkaklar va ayollar uchun ma'qullangan xatti-harakatlar va fazilatlar to'g'risida ijtimoiy me'yorlarni shakllantiradi (Morgenroth va boshq., 2020; Prentice & Carranza, 2002; Renström va boshq., 2023). Bu me'yorlarga zid harakat qilgan shaxslar ko'pincha sanksiyalarga duch keladi, bu esa nafaqat gender ozchiliklarining chetlanishiga, balki cisgender (ya'ni biologik va ijtimoiy jinsi mos keluvchi) shaxslar uchun mavjud stereotiplarning mustahkamlanishiga olib keladi (Thoma va boshq., 2021; Rudman va boshq., 2012).

Til, ayniqsa olmoshlar, gender identifikatsiyasining ifodasi va ijtimoiy tasnifida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu maqola turli tillarda olmoshlarning gender bilan bog'liqligini tahlil qilib, genderga neytral yondashuvlarning inklyuziv jamiyatga ta'sirini ko'rsatishni maqsad qiladi.

USULLAR

Maqolada sifatli tadqiqot metodologiyasidan foydalanildi. Tilshunoslik, ijtimoiy psixologiya va gender tadqiqotlariga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, ingliz, o'zbek, rus, shved va nemis tillarida olmoshlarning ishlatilishiga doir amaliy misollar jamlab, ularning genderga ta'siri kontekstual ravishda baholandi. Misollar adabiy matnlar, rasmiy hujjatlar, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy nutq janrlaridan olindi.

NATIJALAR

Til birliklarida, ayniqsa, kishilik olmoshlarida, muloqot ishtirokchilarining genderni ikkilik asosda tasavvur qilishi yoki genderga nisbatan neytrallik kuzatilishi mumkin. Masalan, ingliz tilida an'anaviy "he/she" olmoshlari genderga xos stereotiplarni aks ettiradi, biroq "they/them" kabi jinsiy neytral variantlar keng qo'llanmoqda. Yoki rus tilida kishilik olmoshlari qat'iy jinsga ajralgan ("он", "она") holda qo'llanadi va kommunikantlar tomonidan qabul qiinadi. O'zbek tilida esa grammatik jins mavjud emas, ammo kontekstual talqin orqali genderga munosabat shakllanadi.

Shved tilida "hen" (genderga neytral III shaxs birlik olmoshi) rasmiy tilga 2010-yillarda kiritilgan bo'lib, genderga neytral olmosh sifatida qabul qilinmoqda.

Berilgan misollar shuni ko'rsatadiki, ayrim tillarda jinsni ifodalash uslubi farqli bo'lib, gender tenglik va inklyuzivlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shunday xilma-xillik tilshunoslikda "genderga inklyuziv olmoshlar" tushunchasining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Genderga inklyuziv olmoshlar turli kontekstlarda turlicha talqin qilinadi. Masalan, "singular they" va "hen" kabi olmoshlar

grammatik jihatdan to'g'ri deb hisoblanadi, chunki ular jinsga urg'u bermasdan fikr ifodalashni afzal ko'radi. Shuningdek, bunday kishilik olmoshlari ijtimoiy tenglik va inkluzivlikni targ'ib etishda ijobiy qabul qilinadi.

Keyingi yillarda dunyo tillarida “ze” kabi neopronouns – yangicha olmoshlar ham muloqotda ommalashgan. Bunday olmoshlar tilshunoslar tomonidan ko'proq salbiy munosabat uyg'otmoqda. Chunki ba'zi tadqiqotlarda bu kabi olmoshlar noto'g'ri yoki tushunarsiz deb baholanmoqda.

Genderga inklyuziv olmoshlar yoki yangicha kishilik olmoshlarining qo'llanilishi har doim ham kommunikantlar tomonidan bir xil qabul qilinmaydi. Agar muloqot ishtirokchilarga bu kabi olmoshning ishlatilish sababi (masalan, nutqda jinsni yashirish) tushuntirilsa, salbiy stereotiplar kamayishi mumkin. Ammo sababsiz yoki noaniq kontekstda foydalanganda, normativ gender stereotiplar ustunlik qiladi.

Olingan natijalar tilshunoslikdagi **gender neytrallik** va **gender ifodasi** o'rtasidagi muvozanatni aks ettiradi. Masalan, “they/their” olmoshi quyidagi kabi jumalarda jinsni ko'rsatmaslik uchun ishlatiladi:

If a student wants to submit their paper late, they should ask the teacher.

Bu kabi qo'llanishlar til orqali gender stereotiplaridan xoli muloqotni shakllantirishga yordam beradi.

Biroq neologik shakllarning (“ze”, “xe”) keng tarqalmasligi va tushunishdagi qiyinchiliklar ba'zi jamiyatlarda genderga nisbatan an'anaviy qarashlarning ustuvorligidan darak beradi. Bu holat shuni anglatadiki, genderga inklyuziv olmoshlarning to'g'ri qabul qilinishi, ularning ishlatilish sababi va kontekstdagi aniqlikka bog'liq bo'ladi.

Quyida maqoladagi asosiy tushunchalar va natijalarni umumlashtiruvchi jadvalda genderga inklyuziv olmoshlarning asosiy ma'nosi, ularga namunalar, ijtimoiy qabul qilinish darajasi va tadqiqotlarda qayd etilgan kuzatishlarni taqdim etamiz.

Ma'no turi	Tavsif	Misollar	Ijtimoiy qabul darajasi	Grammatik qabul	Ijtimoiy kontekstdagi munosabatlar	Tadqiqot manbalari
1. Jinsni ko'rsatmasdan ishlatish	Shaxs jinsini ochiqalmaslik, neytral til ishlatish	they, hen, iel	Yuqori	Yuqori	Ijobiy; ko'proq hurmat va tenglik ifodasi sifatida qaraladi	Hekanaho (2020), Renström & Klysing (2024)
2. Noan'anaviy genderni ifodalash	Shaxs binar jins tizimiga kirmaganini til orqali bildirish	ze, xe, sier, xier	Pastroq	Qarama-qarshi	Kontekstga bog'liq; tushuntirilganda qabul ijobiylashadi	Hekanaho (2022), Lindqvist et al. (2019), Renström et al. (2023)

XULOSA

Genderga inklyuziv olmoshlar, ayniqsa “singular they” va “hen”, jinsni ko'rsatmasdan ishlatilgan kontekstlarda kengroq qabul qilinadi. Biroq, ular **noan'anaviy jinsiy identitet**ni ifodalaganda, ijtimoiy qarshilik kuchayadi. Ushbu qarama-qarshilik, hali ham ko'plab jamiyatlarda mavjud bo'lgan **jinsiy dualizm** va stereotiplar bilan bog'liq.

Maqolada keltirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki: 1) genderga inklyuziv tilni samarali qo'llash uchun, olmoshlarning **ishlatilish sababi** va **konteksti** aniq bayon etilishi kerak; 2) til orqali ifodalanadigan gender tushunchalari, shaxsiy identitet va ijtimoiy tenglik masalalariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli, genderga inklyuziv olmoshlarning tilshunoslikdagi oʻrni, nafaqat grammatik fenomen, balki ijtimoiy ong, madaniyat va inson huquqlari bilan bogʻliq konseptual oʻzgarish sifatida baholanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Ansara, Y. G., & Hegarty, P. (2014). Methodologies of misgendering: Recommendations for reducing cisgenderism in psychological research. *Feminism & Psychology*, 24(2), 259–270. <https://doi.org/10.1177/0959353514526217>
2. Bradley, H. (2013). *Gender*. Polity Press.
3. Gustafsson Sendén, M., Bäck, E. A., & Lindqvist, A. (2015). Introducing a gender-neutral pronoun in a natural gender language: The influence of time on attitudes and behavior. *Frontiers in Psychology*, 6, 893. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2015.00893>
4. Lindqvist, A., Renström, E. A., & Gustafsson Sendén, M. (2019). Reducing a male bias in language? Establishing the efficiency of three different gender-fair language strategies. *Sex Roles*, 81, 109–117. <https://doi.org/10.1007/s11199-018-0975-7>
5. Morgenroth, T., Ryan, M. K., & Peters, K. (2020). The motivational theory of role modeling: How role models influence role aspirants' goals. *Review of General Psychology*, 24(4), 465–483. <https://doi.org/10.1177/1089268020914864>
6. Prentice, D. A., & Carranza, E. (2002). What women and men should be, shouldn't be, are allowed to be, and don't have to be: Content analysis of prescriptive gender stereotypes. *Psychology of Women Quarterly*, 26(4), 269–281. <https://doi.org/10.1111/1471-6402.t01-1-00066>
7. Renström, E. A., Lindqvist, A., & Gustafsson Sendén, M. (2023). The continued impact of gender-fair language on gender equality. *Journal of Language and Social Psychology*, Advance online publication. <https://doi.org/10.1177/0261927X231153578>
8. Rudman, L. A., Moss-Racusin, C. A., Glick, P., & Phelan, J. E. (2012). Reactions to vanguards: Advances in backlash theory. *Advances in Experimental Social Psychology*, 45, 167–227. <https://doi.org/10.1016/B978-0-12-394286-9.00004-4>
9. Thoma, B. C., Salk, R. H., Chan, P. T., & De Los Reyes, A. (2021). Understanding the impact of gender norms on health: A conceptual framework. *Health Psychology Review*, 15(4), 463–475. <https://doi.org/10.1080/17437199.2020.1859225>